

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda 2 699 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga 621 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,0 % i), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga 558 tasi (20,7 %), tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga 213 tasi (7,9 %), mebel ishlab chiqarishga 173 tasi (6,4 %) va mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga 164 tasi (6,1%) to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-yanvar holatiga ko'ra



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 195 226,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	195 226,4	108,3
Navoiy sh.	166 715,4	107,1
Zarafshon sh.	1 067,9	110,1
G'ozg'on sh.	275,9	112,4
tumanlar:		
Karmana tumani	13 580,5	103,2
Konimex tumani	972,1	107,5
Qiziltepa tumani	2 030,8	110,8
Navbahor tumani	1 401,6	106,7
Nurota tumani	650,9	109,7
Tomdi tumani	99,7	107,2
Uchquduq tumani	701,3	106,8
Xatirchi tumani	1 854,8	86,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 176 947,5 ming so'm tashkil etdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (987 106,5 ming so'm), Karmana tumanida (94 799,3 ming so'm) hamda G'ozg'on shahrida (29 336,5 ming so'm) aholi jon boshiga ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, G'ozg'on shahrida (111,2 %), Qiziltepa tumanida (109,0 %), Tomdi tumanida (108,4 %) hamda Konimex va Nurota tumanlarida (108,3 %) yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
2025-yil yanvar-dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 163 109,8 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,6 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 23 641,4 mlrd so'm (12,1 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 8 070,9 mlrd so'm (4,1 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 404,3 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-dekabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 31,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 27,5 % ga oshgan), 107,7 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (12,7 % ga ko'paygan), 2 094,0 ming tonna sement (14,6 % ga kamaygan) hamda 489,4 ming m³ azot (2,5 m ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	26,5	28,0	31,7
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	93,5	95,6	107,7
Yogurt, tonna	18,0	23,3	31,3
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, ming d	2 194,6	2 383,7	2 436,8
Azot, ming m ³	124,2	198,3	489,4
Argon, ming m ³	383,0	1 210,4	1 917,8
Mochevina (karbamid), ming t azot	227,0	267,9	270,6
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	7,7	12,5	14,1
Portlandsement, ming t	2 831,0	2 452,0	2 094,0
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	87,2	341,7	337,0

**2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 80,7 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,5 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,4 % (83,7 %), quyi texnologiyali 7,9 % (8,2 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 80,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	10 669,7	10 782,7	8 706,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	4 542,3	4 589,0	4 296,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 2,4 m ga, oqava suvlarning shلامي 3,1 m % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 71,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	53,9	131,5	309,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	148,1	116,1	88,1
Oqava suvlarning shلامي, mlrd so'm	2,5	19,2	58,7

*2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18 559,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,1 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

